

TALABADA IJOD: PSIXOLOGIK KOMPETENSIYA VA SHAXSIY RIVOJLANISH

Jo‘rayeva Gulbahor Abdug‘affor qizi

*“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti”
Milliy tadqiqot universiteti pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa fanlari doktiri, o‘qituvchi*

Annotatsiya: *maqolada talabalarda ijodiy qobiliyatni rivojlantirishning psixologik jihatlarini aniqlash bosqichlari tahlil qilinadi. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat talabaning kasbiy ko‘nikmalarini shakllantirish, balki uning psixologik salohiyatini, motivatsiyasini, muammoli vaziyatlarga moslashuvchanligini va innovatsion fikrlashini rivojlantirish vositasi sifatida qaraladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, interfaol metodlar va refleksiya jarayonlari talabaning ijodiy salohiyatini sezilarli oshiradi. Shaxsiy va psixologik rivojlanish ijodiy kompetensiyaning asosiy tarkibiy qismiga aylanadi va bu kelajakda talabaning kasbiy muvaffaqiyati uchun muhim rol o‘ynaydi.*

Kalit so‘zlar: *ijodiy qobiliyat, psixologik kompetensiya, talaba shaxsiyati, motivatsiya, muammoli vaziyat, refleksiya, kreativ tafakkur.*

Kirish

Zamonaviy ta‘lim sharoitida talabaning nafaqat bilim, balki shaxsiy va psixologik salohiyatini rivojlantirish muhim hisoblanadi. Ijodiy qobiliyat talabaning o‘zini-o‘zi anglash, mustaqil qaror qabul qilish, stressni boshqarish va muammoli vaziyatlarga moslashuvchanlik kabi psixologik xususiyatlariga bog‘liqdir [4]. Kompetensiyaviy yondashuv esa bu jarayonni tizimli ravishda tashkil qiladi va talabaning psixologik rivojlanishini ham nazorat qilish imkonini beradi [1]. Shu bois talabalarda ijodiy kompetensiyalarni rivojlantirish psixologik jihatdan ham, kasbiy jihatdan ham asosiy vazifa sifatida qaraladi.

Mazkur maqolada kompetensiyaviy yondashuv sharoitida talabalarning ijodiy qobiliyatini takomillashtirishda psixologik kompetensiya va shaxsiy rivojlanish masalasi ko‘rib chiqiladi. Bugungi ta‘lim tizimida ijodiy fikrlash, innovatsion tafakkur va muqobil yechimlar yaratish ko‘nikmalari kasbiy kompetensiyalarning ajralmas tarkibiy qismi sifatida baholanishi ta‘kidlanadi. Kompetensiyaviylik talabaning nazariy bilimlarini amaliy faoliyat bilan uyg‘unlashtirish, amaliyotda ijodiy natija ko‘rsatish, kasbiy sharoitga moslashish va mustaqil qaror qabul qilish psixologiyasining imkonini kengaytiradi. Tadqiqotda ijodiy qobiliyatning psixologik-pedagogik asoslari, uning rivojlanish bosqichlari, loyiha va muammoli vaziyatlar asosidagi ta‘lim metodlari, shuningdek kompetensiyaviy yondashuvning ta‘lim jarayonidagi samaradorlik ko‘rsatkichlari tahlil qilinadi. Natijalar talabalarda ijodiy faoliyatni rag‘batlantirish va kasbiy kompetensiyalarni mustahkamlash zamonaviy ta‘limning ustuvor yo‘nalishlaridan biri ekanligini ko‘rsatadi.

XXI asrda ta‘lim jarayonining asosiy vazifalaridan biri nafaqat talabalarga nazariy bilimlar berish, balki ularning ijodiy tafakkuri, innovatsion fikrlashi, amaliy faoliyatda yangi

yechim yaratishi hamda psixologik kompetensiya va shaxsiy rivojlanish qobiliyatini rivojlantirishdan iboratdir. Kompetensiyaviy yondashuv ta’lim sifatini baholash mezonlarini tubdan o’zgartirib, bilimdan ko‘ra amaliy qobiliyat, tashabbus, ijodiy mushohada va mustaqil qaror qabul qilishni taqozo etadi. Talabada ijodiy qobiliyatning shakllanishi kasbiy faoliyatning kelajakdagi samaradorligiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi, chunki ijodiy tafakkur innovatsion yondashuv, moslashuvchanlik va yangi informatsiyani qayta ishlash kabi kompetensiyalarni talab etadi.

Kompetensiyaviy yondashuv asosida ta’lim jarayonini tashkil etish talabalarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, kreativ yechim taklif qilish, loyiha faoliyatida ishtirok etish va kasbiy faoliyatga tayyorgarlik darajasini oshirish imkonini yaratadi. Shu bois bugungi ta’limning ustuvor yo‘nalishlari qatorida ijodiy qobiliyatni rivojlantirishni kompetensiya modeli bilan integratsiyalash muhim bo‘lib, u talabaning shaxsiy va kasbiy rivojlanishining muhim tarkibiy elementi sifatida qaralmoqda.

Bunda biz tomonimizdan qaralgan asosiy ilmiy g‘oya (qisqa teoretik nuqtalar shaklida) metodik va psixologik omillar asosida keltirib o‘tiladi. Bunda ijodiy qobiliyatning mazmuniga yangi g‘oya yaratish, muammoli vaziyatga moslashish, muqobil yechim ishlab chiqish, tafakkur moslashuvchanligi kirsra, kompetensiya modeli bilan uyg‘unligi bilim + ko‘nikma + amaliy faoliyat, ijodiy komponent kompetensiyaning tarkibiy qismi sifatida qaraladi. Rivojlantirish mexanizmlari sifatida muammoli vaziyatlar, loyiha texnologiyalari, ijodiy topshiriqlar, interfaol metodlarni o‘z ichiga oladi hamda baholash indikatorlariga kreativlik darajasi, kasbiy moslashuv, mustaqil qaror qabul qilish va innovatsion natijalar asosida aniqlanadi.

Psixologik omillar esa ijodiy tafakkur talabaning quyidagi psixologik xususiyatlariga bog‘liq:

- Kognitiv moslashuvchanlik – yangi vaziyatlarga tez moslashish [2];
- Motivatsion faollik – o‘z-o‘zini rag‘batlantirish va tashabbus [5];
- Emotsional barqarorlik – stress va muvaffaqiyatsizliklarni boshqarish [3];
- Meta-tasavvur – o‘z fikri va ishini tahlil qilish, refleksiya [6];

Ushbu xususiyatlar ijodiy kompetensiyaning shakllanishida kalit rol o‘ynaydi va talabaning muammoli vaziyatlarda samarali yechim topishini ta’minlaydi.

Pedagogik yondashuvda ijodiy kompetensiyani rivojlantirish uchun muammoli vaziyatlar, loyiha ishlari, interfaol metodlar va bir qancha texnologiyalar qo‘llaniladi. Bu usullar talabaning kreativ tafakkurini faollashtiradi, innovatsion fikrlar yaratishga rag‘bat beradi va psixologik rivojlanish jarayonini qo‘llab-quvvatlaydi.

Ushbu fikrlar tasdig‘i sifatida talabalar o‘rtasida olib borilgan 5 bosqichli jarayonni quyida keltirib o‘tamiz.

Birinchi bosqich: vaziyatni anglash (hissiy impulsni boshqarish) qobiliyati. Talabaning faoliyatga bo‘lgan motivatsiyasini boshqarish, his-tuyg‘ularni nazorat qilish va hissiy impulslarni ongli tarzda ushlab turish qobiliyatini shakllantirish maqsad qilingan. “O‘z-o‘zini boshqarish” texnikasi orqali talaba o‘z istaklari va his-tuyg‘ulari ustidan ongli ravishda nazorat o‘rnatadi.

Ikkinchi bosqich: bashoratli tahlil qilish (fikrlash) qobiliyati. Hissiy impulslarni ushlab turish natijasida talaba mustaqil ravishda vaziyatni tahlil qilish, turli variantlarni ko‘rib chiqish va ularning oqibatlarini bashorat qilish ko‘nikmasini rivojlantiradi. Bu esa mustaqil fikrlash va ijodiy izlanish uchun zarur asos bo‘lib xizmat qiladi.

Uchinchi bosqich: ratsional qaror qabul qilish qobiliyati. Olingan bilimlar va tahlil natijalariga tayangan holda talaba ongli va asosli qaror qabul qiladi. Qaror qabul qilish jarayoni – fikrlash va tajriba natijasida shakllangan, mustaqil yondashuvga asoslangan muhim bosqichdir.

To‘rtinchi bosqich: loyihani amalga oshirish qobiliyati. Qaror qabul qilinganidan so‘ng, uni amaliyotga tatbiq etish qobiliyati rivojlantiriladi. Bu bosqichda talaba mukofotni kechiktirish va stressga bardosh berish qobiliyatlarini rivojlantiradi, murakkab vaziyatlarga qarshi kurashish ko‘nikmasini hosil qiladi.

Beshinchi bosqich: natijani tahlil qilish qobiliyati. Talaba o‘z faoliyatini baholash, xatolarni aniqlash va ularning sabablari ustida ishlash orqali ijodiy qobiliyatlarini yanada takomillashtiradi. Natijani tahlil qilish o‘z-o‘zini rivojlantirishning asosiy sharti hisoblanadi[7].

Demak, yuqoridagi tadqiqot natijasi asosida talabaning psixologik kompetensiyasi aniqlashda ushbu 5 bosqichla jarayon uning kasbiy faoliyatida muvaffaqiyatga erishishning asosiy biz tomonimizdan keltirilgan asosiy omil hisoblanadi. Innovatsion g‘oya ishlab chiqish, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiya ko‘nikmalari nafaqat ta’lim jarayonida, balki mehnat bozorida ham raqobatbardoshlikni oshiradi.

Xulosa: Talabada ijodiy qobiliyatni kompetensiyaviy yondashuv orqali takomillashtirish ta’lim jarayonining zamonaviy talablari bilan uyg‘unlashgan bo‘lib, talabaning kelajak kasbiy muvaffaqiyatiga xizmat qiladi. Bu jarayon ijodiy tafakkur, amaliy ko‘nikma va kasbiy moslashuvchilikni shakllantirishda yuqori samaradorlikka ega.

Psixologik yondashuvga ko‘ra, talabadagi ijodiy kompetensiya shaxsiy rivojlanish, motivatsiya, stressga moslashuvchanlik va meta-tasavvur bilan uzviy bog‘liqdir. Kompetensiyaviy yondashuv nafaqat talabaning amaliy ko‘nikmalarini rivojlantiradi, balki uning shaxsiy va psixologik salohiyatini kuchaytiradi. Shu bilan, talabaning ijodiy salohiyati kelajakdagi kasbiy muvaffaqiyat uchun asosiy omil sifatida qaraladi. Pedagogik vositalar va interfaol metodlar ijodiy kompetensiyani rag‘batlantiruvchi samarali mexanizm hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. OECD. Education 2030: The Future of Education and Skills. 2019.
<https://www.oecd.org/education/2030-project/>
2. Boyanova, O. “Компетентностный подход в профессиональном образовании”, 2020. <https://cyberleninka.ru/article/n/kompetentnostnyy-podhod-v-professionalnom-obrazovanii>
3. Amabile, T. Creativity in Context. Boulder, CO: Westview Press, 1996.
4. Sternberg, R. J. Handbook of Creativity. Cambridge University Press, 2020.
<https://www.cambridge.org/core/books/handbook-of-creativity>

5. Csikszentmihalyi, M. Creativity: Flow and the Psychology of Discovery and Invention, 1996.
<https://www.harpercollins.com/products/creativity-mihaly-csikszentmihalyi>
6. Zimnaya, I. “Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированного образования”, 2013.
<https://cyberleninka.ru/article/n/klyuchevye-kompetentsii>
7. Jo‘rayeva G.A. Kompetensiyaviy yondashuv asosida talabalarning ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish. // Ped. fan.fal.d. (PhD) dis. – Toshkent, 2025. 159 b.